



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 19-fevral

82-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 78-6-0-Q/25-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 78-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 78-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qarori bilan:

2025-yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlar;

davlat kafolati ostida jalb qilinadigan kreditlar hisobidan 5,26 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larni o‘zlashtirishi;

kafolatlanmagan kreditlar hisobidan 2,76 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larni o‘zlashtirishi;

6,17 milliard AQSH dollari miqdoridagi istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish belgilanganligi;

mazkur qarorning 1-bandida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o'rinlarda XMI/XHMT) ishtirokidagi investitsiya loyihalari bilan ishlash bo'yicha Favqulodda shtab 1-ilovaga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy shtablari 1.1-ilovaga muvofiq tashkil etilganligi;

Favqulodda shtabning vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi:

amalga oshirilayotgan loyihalarni (davlat kafolati ostida va davlat kafolatisiz) jadallashtirish;

tender natijalariga ko'ra loyihalar doirasida iqtisod qilingan mablag'larni samarali ishlatish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish;

loyihalar doirasida mahalliy kontentni oshirishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkil qilish;

XMI/XHMTning O'zbekiston Respublikasidagi vakillari ishtirokida loyihalar amalga oshirilishi masalalarini har chorakda muhokama qilib borish va ularning hududlarga tashriflarini tashkil etish;

bajarilayotgan ishlarni qat'iy nazoratga olish va doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borishi;

belgilanishicha:

O'zbekiston Respublikasi (O'zbekiston Respublikasi Hukumati) nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish to'g'risidagi moliyaviy (qarz, kredit) bitimlar davlat tashqi qarzi uchun belgilangan yillik cheklangan miqdorlarga va O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga muvofiq ushbu qarorda belgilangan tartibda tuziladi;

davlat tashqi qarzini jalb qilish rejalashtirilayotgan yangi investitsiya loyihalari ro'yxatiga faqat ushbu qarorda belgilangan tartibda loyihani baholash hujjatlari ishlab chiqilgan loyihalar kiritiladi;

Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan XMI/XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalari bo'yicha moliyaviy (qarz, kredit, tashqi beg'araz ko'mak) bitimlar yuzasidan huquqiy xulosalarni Hukumatning alohida qarorini qabul qilmasdan taqdim etadi;

davlat tashqi qarzi hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha moliyaviy (qarz, kredit) bitimlar, qayta kreditlash to'g'risidagi bitimlar va tashqi qarz jalb etish

doirasidagi boshqa bitimlarni imzolash vakolati O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri tomonidan beriladi;

O‘zbekiston Respublikasi (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati) nomidan XMI/XHMTga loyihani moliyalashtirish yoki unga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha tegishli so‘rovnoma Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yoki tegishli XMIda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan belgilangan boshqaruvchi yoxud uning o‘rinbosari tomonidan yuborilishi;

bunda konsepsiyasi tasdiqlanmagan loyihalarni moliyalashtirish uchun XMI/XHMTga so‘rovnoma Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda yuborilishi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda boshqa XMI/XHMT ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish doirasida:

a) XMI/XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalari vazirlik va idoralarning tasdiqlangan rivojlantirish strategiyalari asosida ishlab chiqiladi;

b) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi vazirlik va idoralar tomonidan taklif etilgan loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi qo‘shma xulosasini ko‘rib chiqish uchun o‘n besh ish kuni muddatida Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga (keyingi o‘rinlarda Hukumat komissiyasi) kiritadi;

d) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining loyihani baholash hujjati bo‘yicha ijobiy xulosalari Hukumat komissiyasi tomonidan loyihani navbatdagi yil uchun Investitsiya dasturining davlat tashqi qarzini jalb etish rejalashtirilayotgan investitsiya loyihalari ro‘yxatiga kiritish uchun asos bo‘lishi;

bunda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklaridan biri ijobiy xulosa taqdim qilmagan hollarda, loyihani ijro etuvchi vazirlik va idora (keyingi o‘rinlarda Loyihani ijro etuvchi agentlik) tomonidan Hukumat komissiyasiga axborot beriladi;

e) Hukumat komissiyasi tomonidan ma’qullagan loyihalar bo‘yicha loyihani baholash hujjatlari Loyihani ijro etuvchi agentliklar tomonidan ishlab chiqiladi;

f) davlat tashqi qarzi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qaytariladigan va loyiha konsepsiyasi tasdiqlangan loyihalarning loyihani baholash hujjatlarini ishlab chiqish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

g) Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Loyihani ijro etuvchi agentliklarning baholash guruhlarini tasdiqlagan xaridlarning baholash hujjatlari tender texnik topshirig'iga va tegishli XMI/XHMTning xarid tartib-taomillariga muvofiqligi yuzasidan tanlanma tekshiruvni doimiy ravishda amalga oshirib borishi;

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish, monitoring va postmonitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, XMI/XHMT mablag'larini jalb qilgan holda amalga oshirilayotgan loyihalarni tayyorlash, muvofiqlashtirish va samarali bajarish, shu jumladan, xaridlar va shartnomalarni o'z vaqtida amalga oshirish hamda loyihalarning maqsadli natijalariga erishishni ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik Loyihani ijro etuvchi agentliklar va hudud rahbarlariga yuklanganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining XMI/XHMT ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish guruhlarini tuzish amaliyotini 2025-yil 1-martdan boshlab bosqichma-bosqich tugatish va loyihalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha barcha funksiyalarni Loyihani ijro etuvchi agentliklarning tegishli bo'linmalariga yuklash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Loyihani ijro etuvchi agentliklarga loyihadan ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlash maqsadida ushbu qarorda hamda XMI/XHMT bilan tuzilgan tegishli moliyaviy bitimlarda belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish va shartnomalarni boshqarish uchun mahalliy va xalqaro ekspertlarni, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etishga ruxsat berilganligi;

belgilanishicha, xaridlar qatnashchilarining takliflarini baholash maqsadida Loyihani ijro etuvchi agentlik rahbarining buyrug'iga muvofiq baholash guruhi tuziladi va uning tarkibiga majburiy tarzda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakillari va qoidaga ko'ra, loyiha doirasida jalb etilgan xaridlar bo'yicha xalqaro va (yoki) mahalliy maslahatchi kiritilishi lozimligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun loyihalarni (dasturlar) amalga oshirish bo'yicha muzokaralarda qatnashish uchun Hukumat delegatsiyasi tarkibini shakllantirish, muzokara o'tkazish, mablag'larni jalb etish bo'yicha mas'ul hisoblanishi, bunda, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi vakili majburiy tarzda delegatsiya tarkibiga kiritilishi;

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro moliya institutlaridagi boshqaruvchilari va ularning o'rinbosarlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan Xalqaro moliya

institutlaridagi boshqaruvchi idorasi vazifalari yuklangan vazirlik va idoralar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-fevraldagi 78-6-0-Q/25-sonli qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-fevraldagi PQ-51-son qarori 1-bandida ko'rsatilgan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (keyingi o'rinlarda XMI/XHMT) ishtirokidagi investitsiya loyihalari bilan ishlash bo'yicha hududiy shtab ilovaga muvofiq tasdiqlanishi;

Viloyat hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo'yicha o'rinbosari O.Inamov Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Rasulov), manfaatdor boshqarma va idoralar, Namangan shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki hamda boshqa XMI/XHMT vakillari ishtirokida har yili 1-sentabrga qadar joyiga chiqqan holda shahar va tumanlar kesimida 5 million AQSH dollaridan va viloyat kesimida 50 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan (davlat kafolati ostida va davlat kafolatisiz) loyihalar portfelini shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov